DEDILAR: DUNYODA ASLI KIM AZIZ?
AYTDILAR: USTOZDIR, USTOZ BEGUMON!

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 30-sentabr, chorshanba,
85 (24.265)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Muallimning obro‘-e’tibori — bu avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e’tibori.

Shavkat MIRZIYOYEV.

HOKIM – HUDUDLARDA

Urgut tumani Tinchlik mahallasida umumiy qiymati 10 million dollar bo‘lgan O‘zbekiston–Tojikiston savdo, logistika va tibbiyot markazini tashkil etish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Viloyat hokimi Adiz Boboyev viloyat sektor rahbarlari bilan birgalikda mazkur loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishib, hududda zarur infratuzilmani yaratish, qurilish ishlarini sifatli va belgilangan talablar asosida amalga oshirish bo‘yicha mas’ullarga topshiriqlar berdi.

- Hududni bo‘limlarga ajratib, loyihada belgilangan tartib asosida zamonaviy va sifatli tarzda tashkil etish kerak, - dedi viloyat rahbari A.Boboyev. - Savdo kompleksi, elektrotexnika, oziq-ovqat mahsulotlari, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, yashil hudud hamda boshqa zonalarni alohida shakllantirib, har bir yo‘nalish uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bu joyda tashrif buyuruvchilar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham zamonaviy va qulay muhit yaratish ko‘zda tutilgan.

Ayni paytda logistika markazi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy savdo majmuasi va avtoturargoh barpo etilmoqda. Qurilish ishlari “Buyuk Kompleks Siti” MChJ tomonidan amalga oshirilyapti. Tashkilot rahbari Odil Salimovning ta’kidlashicha, loyihaning logistika qismi ishlari 70 foizga, tibbiyot markazi 15 foizga va mehmonxona qismi 25 foizga bajarilgan bo‘lib, yil yakuniga qadar to‘liq foydalanishga topshirilishi belgilangan.

Viloyat hokimi Urgut tumani markazidagi istirohat bog‘ida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va ta’mirlash ishlarini ham ko‘zdan kechirdi.

Ayni paytda bog‘ning kirish qismi, hududdagi bino va inshootlar fasadlari yangilanib, piyodalar yo‘laklari hamda favvoralar ta’mirlanmoqda. Shuningdek, hududga zamonaviy o‘rindiqlar va yoritish chiroqlari o‘rnatilib, aholi uchun yanada qulay va shinam muhit yaratilmoqda.

Viloyat rahbari tuman markazidagi mazkur bog‘ni aholi va mehmonlar uchun zamonaviy dam olish maskaniga aylantirish, attraksionlarni zamon talablari asosida yangilash, hududda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini sifatli tashkil etish bo‘yicha mas’ullarga tegishli topshiriqlar berdi.

Tuman hokimining o‘rinbosari Sohib Xudoyberdiyevning ma’lum qilishicha, “Urgut istirohat bog‘i” hamda aholi gavjum bo‘lgan Islom Karimov ko‘chasi infratuzilmasini yaxshilash orqali 30 dan ortiq savdo do‘konlari faoliyatini qayta tiklash rejalashtirilgan. Shuningdek, hududda 1 kilometr avtomobil yo‘lini asfaltlash va shuncha piyodalar yo‘lagini barpo etish, chiqindi qutilari va zamonaviy yoritish chiroqlarini o‘rnatish, yangi arka qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

MUKOFOTLAR MUBORAK!

Prezidentimiz 2026-yil 29-sentabrda “O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta’lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi.

Mukofotlanganlar orasida quyidagi samarqandlik fidoyi pedagog-o‘qituvchilar bor:

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO‘RSATGAN YOSHLAR MURABBIYSI” faxriy unvoni bilan

Soleyev Axmadjon - Samarqand davlat universitetining o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori.

“FIDOKORONA XIZMATLARI UCHUN” ordeni bilan

Meliyev Abduhalim Xurramovich - Samarqand shahridagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan 59-maktab-internati direktori.

II darajali “SOG‘LOM AVLOD UCHUN” ordeni bilan

Shodiyev Bektosh Shokirovich - Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi.

“SOG‘LOM TURMUSH” medali bilan

Pardayeva Gavhar Doniyorovna - Samarqand shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi.

“JASORAT” medali bilan

Ro‘zmetova Laylo Xudoyorovna - Nurobod tumanidagi 78-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

“SHUHRAT” medali bilan

Abdiyeva Turdigul Abdujabbarovna - Samarqand shahridagi 80-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Sadinov Abror Samadovich - Paxtachi tumani 1-texnikumi direktori.

O‘ZBEKISTON – BUTUNJAHON SHAXMAT OLIMPIADASI CHEMPIONI

15-27-sentabr kunlari Samarqand xalqaro turizm markazida Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE)ning 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi bo‘lib o‘tdi.



200 dan ortiq davlatdan jami 394 ta – erkaklar turnirida 205, ayollar musobaqasida 189 jamoa qatnashdi va FIDE tarixidagi eng yirik shaxmat olimpiadasi sifatida qayd etildi. Jamoalar 11 turda o‘z kuch va mahoratini namoyon qildi.

O‘zbekiston mezbon mamlakat sifatida olimpiadada uchtadan terma jamoa bilan qatnashdi. Shaxmatchilarimiz Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev, Muhiddin Madaminovdan iborat O‘zbekiston-1 jamoasi finalda Ukraina shaxmatchilarini 2,5:1,5 hisobida mag‘lub etdi va 20 ochko bilan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibligini qo‘lga kiritdi.

Ikkinchi o‘rin Hindiston jamoasiga, uchinchi o‘rin Germaniya shaxmatchilariga nasib etdi.

Ayollar musobaqasida Xitoy vakillari chempion bo‘ldi. Qozog‘iston jamoasi ikkinchi, Hindiston qizlari uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Samarqand mezbonligidagi nufuzli musobaqa doirasida FIDE kongressi Bosh Assambleyasida qozog‘istonlik Timur Turlov Xalqaro shaxmat federatsiyasi prezidenti etib saylandi.

Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” majmuasida 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining tantanali yopilish marosimi o‘tkazildi. Unda jamoalar musobaqalardagi ishtiroki, reyting o‘rni va o‘ziga xos muvaffaqiyatlari uchun rag‘batlantirildi.

Chempionlik kubok va medallari o‘z egalariga topshirildi.

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi FIDE tomonidan 2026-yilda “Eng yaxshi federatsiya” nominatsiyasida g‘olib deb topildi. Grossmeyster, sobiq jahon chempioni, milliy terma jamoa sardori Rustam Qosimjonov FIDEning faxriy vitse-prezidenti, Hulkar Tohirjonova FIDEning Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha mintaqaviy prezidenti etib saylangani e’lon qilindi. O‘zbekiston shaxmat federatsiyasiga FIDEning “Shon-sharaf” medali topshirildi.

FIDE shaxmat olimpiadasi bayrog‘i 2028-yilda Abu Dabi shahrida o‘tkaziladigan 47-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga mezbonlik qiladigan Birlashgan Arab Amirliklari sport mutasaddilariga taqdim etildi.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

“YIL O‘QITUVCHISI”: munosiblar ichra munosiblar

Respublikamizda ilk bor Prezident tashabbusi bilan “Yil o‘qituvchisi” tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda respublika bo‘ylab 46 ming nafardan ortiq pedagog ishtirok etdi. Tanlov yakunida har bir tuman (shahar)dan birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan 208 nafar pedagog g‘olib deb topildi. Xususan, viloyatimizdan 16 nafar pedagog “Yil o‘qituvchisi” tanlovida g‘alabaga erishdi. Xo‘sh, ular qanday natijalarga ko‘ra saralab olindi? Ularning maktabdagi faoliyati qanday?



YIGIRMA MILLION SO‘MDAN ORTIQ MAOSH OLAMAN

- Maktabda rus tilidan dars beraman, ilk ish faoliyatimni 2015-yilda boshlaganman, - deydi **Kattaqo‘rg‘on shahridagi 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi Gulbahor Ibragimova.** - Tushgacha maktabda dars beraman, keyin uch kun maktabda to‘garak mashg‘ulotlari o‘tsam, uch kun o‘quv markazda ishlayman. O‘quvchilarni fan olimpiadalari, oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga tayyorlayman. Har yili o‘quvchilarim fan olimpiadalarining tuman va viloyat bosqichlarida qatnashib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritadi.

Kasbimni va bolalarni yaxshi ko‘raman. Ayrim bolalar sho‘x bo‘lsa-da, ularning ham tilini topish mumkin. Bolaga yaxshi munosabatda bo‘lsangiz, sizga ham yaxshi javob qaytaradi. Shuning uchunmi hali biron ota-ona maktabga ustimdan shikoyat qilib kelmagan.

O‘tgan yili vazir ustamasiga va 70 foizlik ustamaga ega bo‘ldim. Maktabdan 40 foizlik ustama berishdi. Bundan tashqari, xalqaro sertifikatim uchun ham 50 foizlik ustama qo‘shildi. Natijada o‘tgan o‘quv yilida 23 million so‘mdan maosh oldim.

(Davomi 2-sahifada) »»

MUALLIMGA MUNOSABAT O‘ZGARYAPTI:

RAG‘BAT, NATIJA VA YANGI IMTIYOZLAR

Ta’lim sifati haqida gap ketganda, odatda darslik, zamonaviy maktab, texnologiya yoki yangi dasturlar tilga olinadi. Ammo bu zanjirning markazida o‘qituvchi turadi. Sinfxonadagi natija ham, bolaning bilimga munosabati ham, ta’limdagi islohotlarning amaldagi samarasi ham ko‘p jihatdan pedagogning mehnati, malakasi va o‘z kasbiga munosabatiga bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralar faqat ish haqini oshirish bilan cheklanmayotganini ko‘rish mumkin. Moddiy rag‘bat, kasbiy o‘sish, ijtimoiy imtiyoz va huquqiy himoyani birlashtirgan tizim shakllanmoqda.

Ta’lim sohasidagi eng muhim o‘zgarishlardan biri pedagog mehnatini natija va malakaga qarab rag‘batlantirish tamoyilining kuchayishi, deyish mumkin. Chunki bir vaqtlar o‘qituvchining ishi asosan belgilangan tarif va lavozim maoshi doirasida baholanar edi. Ayni paytda muallimlarga faoliyat samaradorligiga qarab 10 foizdan 40 foizgacha ustama belgilanishi sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda gap shunchaki ko‘proq ishlash haqida emas. Asosiy masala - pedagogning kasbiy salohiyati, o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligi va ta’lim natijalarini rag‘batlantirish.

Ushbu yondashuvning yana bir jihati bor: maktab jamoasi faqat o‘qituvchidan iborat emas. Psixolog va kutubxonachilar uchun ham 10-20 foizgacha ustamalar belgilangani ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari mehnatini ham inobatga olishga urinayotgan tizimni ko‘rsatadi.

O‘z fani bo‘yicha xalqaro yoki milliy sertifikatga ega o‘qituvchilarga 50 foiz ustama to‘lanishi pedagogning kasbiy rivojlanishiga berilgan jiddiy rag‘batdir. Demak, o‘qituvchi endi diplom bilan cheklanib qolmasligi, o‘z bilimlarini muntazam yangilashi, xalqaro mezonlarga moslashishi va sohasida raqobatbardosh bo‘lishi kerak.

CHEKKA HUDUD O‘QITUVCHISIGA RAG‘BAT

Ta’limdagi eng katta masalalardan biri - hududlar o‘rtasidagi imkoniyatlar farqi. Poytaxt va yirik shaharlarda malakali pedagoglar uchun imkoniyatlar ko‘proq bo‘lishi tabiiy. Olis qishloq va chekka hududlarda esa kadr masalasi doim dolzarb.

Shu nuqtai nazardan olis hududlarda dars berayotgan pedagoglarga 50 foizgacha ustama belgilashni kadrlarni chekka hududlarga jalb qilishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm sifatida ko‘rish mumkin.

Bu yerda masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ustama malakali o‘qituvchini hududga olib borishi mumkin, ammo uni ushlab qolish uchun faqat maoshning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Yashash sharoiti, infratuzilma, uy-joy, maktabning moddiy bazasi va kasbiy o‘sish imkoniyatlari ham muhim.

Alohida yondashuv talab etadigan bola bilan ishlash o‘qituvchidan qo‘shimcha vaqt, sabr, individual metodika va psixologik yondashuvni talab qiladi. Bunday mehnat har doim ham oddiy statistik ko‘rsatkichlarda aks etmaydi.

Shu ma’noda ustama nafaqat moddiy rag‘bat, balki inklyuziv ta’limdagi mehnatning o‘ziga xosligini tan olish vositasi hamdir. Ya’ni, inklyuziv sinflarda ishlaydigan pedagoglarga 40 foizgacha ustama belgilanganini alohida e’tirof etish o‘rinli.

IMTIYOZLAR MAOSH BILAN CHEKLANMAYDI

O‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash siyosatidagi yana bir tendensiya - pedagogga berilayotgan imtiyozlarning kengayib borayotganidir. Vazirlar Mahkamasining joriy yil 16-apreldagi 175-son qaroriga muvofiq, pedagog xodimlarga ayrim davlat xizmatlarini ko‘rsatishda 50 foiz chegirma beriladi.

Jumladan, ko‘chmas mulk obyektlarining davlat kadastri sohasidagi xizmatlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, umumta’lim fanlarini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish, traktorchi-mashinist guvohnomasini olish uchun imtihon topshirishga ruxsat berish, rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish kabi xizmatlar shular jumlasidandir.

Pedagoglarga berilayotgan rag‘batlar bir martalik to‘lovlar bilan ham to‘ldirilmoqda. Jumladan, 1-oktabr - O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan beriladigan bir martalik mukofot puli miqdori joriy yilda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 75 foizigacha oshirildi.

Bundan tashqari, oliy malaka toifasiga ega maktab o‘qituvchilarining magistraturada tahsil olish imkoniyatlari ham kengaytirildi. Hukumatning 322-son qarori bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va xalqaro akkreditatsiya qilingan tizimda oliy malaka toifasiga ega pedagoglarga pedagogika yo‘nalishida magistraturada masofaviy shaklda tahsil olish imkoniyati belgilandi.

(Davomi 2-sahifada) »»

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘qituvchining maqomini oshirish faqat maosh va imtiyozlar bilan o‘lchanmaydi

Zarafshon



“YIL O‘QITUVCHISI”: munosiblar ichra munosiblar

MUALLIMGA MUNOSABAT O‘ZGARYAPTI: RAG‘BAT, NATIJA VA YANGI IMTIYOZLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

“Yil o‘qituvchisi” tanlovida attestatsiya imtihonida yuqori ball to‘plagan uch nafar o‘qituvchi Kattaqo‘rg‘on shahri bo‘yicha tanlovga jalb qilindi. Birinchi bosqichda 92 ball to‘pladim. Ikkinchi bosqichda dars o‘tish mahoratimga birinchi o‘rinni berishdi. Uchinchi bosqichda badiiy adabiyotdan va siyosiy jarayonlardan test sinovlari bo‘lib o‘tdi. Test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan respublika bo‘yicha bir vaqtning o‘zida olindi. Shuningdek, yil davomida darsdan tashqari qilgan ishlarimizning taqdimotini ko‘rsatib berdik.



BITIRUVCHILARIMIZ YUZ FOIZ OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA O‘QISHGA KIRADI

- Ilk ish faoliyatimni 2014-yilda tumandagi 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabidan boshlaganman, - deydi **Oqdaryo tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning tarix fani o‘qituvchisi Temur Tuvalov.** - So‘ngra tumandagi 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabida yetti yil ishladim. 2022-yilda tumanimizda ixtisoslashtirilgan maktab ochildi va men ikki bosqichli imtihondan o‘tib, ishga qabul qilindim.

Bugun hukumatimiz tomonidan pedagoglarga ko‘plab imtiyozlar berilmoqda. Kasbidan mamnun, o‘z ustida ishlaydigan o‘qituvchilar bunday imtiyozlardan samarali foydalanyapti. O‘z navbatida, men ham izlanaman, kitob o‘qiyman, sohamga oid darslarni o‘rganib boraman. “Tafakkur” va xalqaro jurnallarda maqolalar chop ettirganman.

Mashaqqatli mehnatim albatta, o‘z mevasini bera boshladi. 2023-yilda tarix fanidan A+ darajali milliy sertifikat oldim. 2024- va 2026-yillarda vazir jamg‘armasidan ustamaga ega bo‘ldim. 2025 yilning martida attestatsiya imtihonidan 92 ball bilan 70 foizlik ustamani qo‘lga kiritdim va o‘sha yilning kuzida yana attestatsiyada qatnashib, 96 ball to‘pladim. “Yil o‘qituvchisi” tanlovining uch bosqichli saralash jarayonidan o‘tib, g‘olib bo‘ldim.

Ixtisoslashtirilgan maktabda fanlar chuqurroq o‘qitiladi. O‘quvchilar ertalabdan soat 16:00 gacha maktabda bo‘ladi. Tushlikdan keyin yana qo‘shimcha mashg‘ulotlar, to‘garaklar o‘tiladi. Kun bo‘yi maktabda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ham bitiruvchilarimizning natijasi faxrlanishga arziydi. Har yili maktab bitiruvchilarimizning barchasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kiradi.



O‘RGANAMAN, O‘RGATISHDAN CHARCHAMAYMAN

- Uch kun o‘quv markazda, uch kun maktabda dars beraman, - deydi **Urgut tumanidagi 81-umumiy o‘rta ta’lim maktabining davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi Husan Sharipov.** – O‘quvchilarim fan olimpiadalari va huquqqa oid tanlovlarda faol qatnashib, faxrli o‘rinlarni olib kelmoqda. Darsda o‘quvchilarimga mantiqiy savollar beraman. Ular darsdan keyin ham bergan savolimning javobini izlab yurishadi. O‘zim ham doim izlanaman, o‘rganaman. Har yili o‘nga yaqin o‘quvchim oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kiradi. Birinchi o‘qitgan shogirdlarim hozir turli huquq-tartibot organlarida mehnat qilyapti.

O‘quvchilarimizning bilim olishga ishtiyoqi baland. Bu yilgi bitiruvchilarimizning 50 nafarga yaqini fanlardan sertifikatlarni qo‘lga kiritdi va 20 dan ziyod o‘quvchi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirdi.

Maktab jamoamizning deyarli yarmi erkak o‘qituvchilar bo‘lib, o‘qituvchilarimizda ham xalqaro yoki milliy sertifikatlar mavjud. Besh-olti nafar o‘qituvchi 15 million atrofida maosh oladi.

Izlanishlarim besamar ketmadi. 2025-yilning kuzgi attestatsiyasida davlat va huquq asoslari fanidan 92 ball, tarbiya fanidan 86 ball to‘plab, 70 foizlik ustamaga ega bo‘ldim. Bu yilgi “Yil o‘qituvchisi” tanlovida yuqori ball olgan o‘qituvchilar qatori men ham ishtirok etib, g‘olib bo‘ldim.

Pedagoglarning fikrlarini tinglab, kasbining tajribali va mohir ustalari “Yil o‘qituvchisi” tanlovida g‘olib bo‘lganiga amin bo‘ldik. Ularning barchasi bir fikrni aytishdi: “Biz, pedagoglarga imkoniyatlar berilayotgan ekan, albatta, bundan foydalanish kerak”.

Yanayam e’tiborlisi, mazkur tanlov g‘oliblarining har biri 616 million so‘m (bazaviy hisoblash miqdorining 1400 baravari) pul mukofoti bilan mukofotlanadi. Tanlov nafaqat o‘qituvchilarni moddiy rag‘batlantiradi, balki ularning kasbiy mahoratini oshirish barobarida, ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xurshida ERNAZAROVA.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

FAQAT RAG‘BAT EMAS, HIMOYA HAM KERAK

Pedagoglar faoliyati haqida gap ketganda maktablarda shu vaqtga qadar amalda bo‘lgan dars taqsimoti ustuvorlik mezonlari 19 tadan 10 taga qisqartirilganini ham qayd etish lozim. Zero, yangi tartib bo‘yicha dars soatlarini taqsimot qilishda asosiy e’tibor natija ko‘rsatgan raqobatdosh hamda fanni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlarga va zamonaviy kompetensiyalarga ega o‘qituvchining kasbiy salohiyati va natijasiga qaratilgan.

Natijada dars soatlarini taqsimlashda o‘z ustida ishlaydigan, yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan va sifatli ta’lim bera oladigan o‘qituvchilarga birinchi navbatda dars soatlari berish imkoniyati yaratildi. Bu orqali tajribali o‘qituvchilar tomonidan sifatli ta’lim berilishi ta’minlanadi, shuningdek, o‘quvchilarning bilim natijalarini yaxshilash hamda maktablarda ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

O‘qituvchining maqomini oshirish masalasi faqat maosh va imtiyozlar bilan o‘lchanmaydi. Pedagog o‘z vazifasini bajarayotganda tashqi bosimdan himoyalangan bo‘lishi ham muhim. Shu ma’noda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 197-5-moddasiga ko‘ra, pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravaridan 10 baravarigacha, mansabdor shaxslarga 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda jarima jazosi belgilanganini qayd etish o‘rinli.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, fuqarolarga BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha, mansabdor shaxslarga 15 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

PEDAGOG FARZANDINING TA’LIMIGA IMTIYOZ

Yana bir muhim qadam - pedagoglarning farzandlari uchun oliy ta’lim muassasalarida kontrakt to‘loviga chegirma berish mexanizmining joriy etilishi. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-sentabrdagi 501-son qarori bilan bu tartib tasdiqlangan. Joriy o‘quv yilidan davlat oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichida kunduzgi shaklda tahsil olayotgan pedagoglar farzandlari uchun kontrakt summasiga 30 foiz miqdorida chegirma beriladi.

Agar pedagogning bir nechta farzandi kontrakt asosida o‘qiyotgan bo‘lsa, imtiyoz ularning har biriga alohida qo‘llanadi. Imtiyoz raqamlashtirilgan tarzda amalga oshirilayotgani alohida mavzu. Bunda ariza kontrakt.edu.uz tizimi orqali beriladi, pedagoglik maqomi esa «Raqamli hukumat» tizimining idoralararo platformasi orqali tasdiqlanadi. Shundan so‘ng chegirma avtomatik shakllanadi.

To‘g‘ri, imtiyoz barcha ta’lim turlariga taalluqli emas. Oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari, qo‘shma ta’lim dasturlari va tabaqalashtirilgan kontrakt asosida tahsil oluvchilar bu tartibdan mustasno. Qolaversa, ota-ona pedagoglik maqomidan mahrum etilsa, keyingi o‘quv yilidan boshlab chegirma to‘xtatiladi.

Asosiysi, bu imtiyoz kutilmagan yangilik emas. Davlat rahbari 2025-yil 15-sentabrda - O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida pedagoglar farzandlarining kontrakt to‘loviga chegirma berish haqida ma’lum qilgan edi. Demak, bugungi qaror avval bildirilgan tashabbusning huquqiy mexanizmi shakllanganini anglatadi.

Umuman, bir narsa aniq - o‘qituvchiga munosabatni o‘zgartirish faqat uning maoshini oshirishdan iborat emas. Uning mehnatini natija bilan bog‘lash, kasbiy o‘sishiga sharoit yaratish, oilasiga ijtimoiy yengillik berish va kasbiy daxlsizligini ta’minlash ham jarayonning bir qismi. Endi e’tiborni imtiyozlarni joriy etishdan ularning ta’lim sifatiga qanday ta’sir qilayotganini o‘lchashga qaratish lozim. Zero, har qanday islohotning eng katta mezoni uning natijasidir.

Y.MARQAYEV.

Xalq bilan muloqot

Odamlarning dardi eshitildi, muammolari o‘rganildi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi, viloyat sudi, viloyat prokuraturasi va ichki ishlar boshqarmasi mas’ul rahbarlari hamda tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida Kattaqo‘rg‘on shahrida ommaviy sayyor qabul o‘tkazildi.

Muloqotda Kattaqo‘rg‘on shahri hamda Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon va Narpay tumanlaridan 60 nafarga yaqin fuqaro mulkni noqonuniy egallash, moliyaviy-huquqiy nizolar, vasiylik va homiylik tayinlash, aliment undirish, bandlik, ta’lim muassasalariga joylashtirish, elektr ta’minoti, ichki yo‘llarni asfaltlash, maktabgacha va maktab ta’limi obyektlarini qurish va ta’mirlash, uy-joylarni hujjatlashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatidagi huquqiy va moliyaviy masalalar yuzasidan murojaat qildi.

Jumladan, Kattaqo‘rg‘on shahri Damariq mahallasida yashovchi F.Ergashevaning shahardagi Baxt ko‘chasida irrigatsiya tizimini ta’mirlash va nasosni almashtirish masalasidagi murojaati qanoatlantirildi. Nasosni tez kunda almashtirib berish belgilandi. Shuningdek, Ishtixon tumani Namuna mahallasida yashovchi fuqaro G.Suvonovaning uy-joyini ta’mirlashda amaliy yordam so‘rab qilgan murojaati viloyat va tuman prokuraturalari tomonidan nazoratga olinib, ta’mirlash ishlari boshlanishi ma’lum qilindi.

Murojaatlarning aksariyati joyida yechim topgan bo‘lsa, qo‘shimcha muddat va o‘rganish talab etiladigan masalalar bo‘yicha mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi. Ularning ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanishi viloyat Xalq qabulxonasi tomonidan nazoratga olindi.

ENG KO‘P SO‘RALGAN

SAVOL: “TANISH-BILISHCHILIK” BO‘LDIMI?

O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg‘or va ijodkor o‘qituvchilarni aniqlash hamda ularning tajribasini ommalashtirish maqsadida o‘tkazilayotgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovida viloyatimizdan e’tirof etilgan 16 nafar fidoyi pedagoglar qatorida Jomboy tumanidagi 23-umumta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi Nigora Amirova ham bor.



– Bir kitobda faqat oldinga harakat qilib, intilgan inson albatta, maqsadiga erishadi, degan gapni o‘qigandim, – deydi Nigora Amirova. – “Yil o‘qituvchisi” tanlovi jarayonida bunga yana bir bor amin bo‘ldim. To‘g‘risini aytsam, men pedagoglarga beriladigan 70 foizlik ustama olish uchun attestatsiyaga borib, shu tanlov ishtirokchisiga aylandim. Oliy toifali o‘qituvchiman, 25 yillik tajribam bor, imkoniyat yaratilgan ekan, ustama uchun harakat qilib ko‘ray, deb imtihon topshirgandim, 94 ball olibman. 2025-yil avgust–dekabr oylaridagi malaka sinovlari natijalari “Yil o‘qituvchisi” tanlovining birinchi bosqichiga integratsiya qilingan ekan. Yuqori ball olganim uchun menga tanlovda qatnashasiz, degan xabar keldi. Keyin tanlov nizomi bilan tanishib chiqdim, qanday shartlar borligiga qiziqdim. Hammasi kundalik bajarib yurgan ishlarimiz, pedagogik faoliyatimiz bilan bog‘liq shartlar, faqat ozgina hafsala bilan sidqidildan ishlash kerak ekan, xolos. Barcha jarayonlarga nizom asosida puxta tayyorgarlik ko‘rdim, o‘qidim, izlandim.

Ikkinchi bosqichda ishtirokchilar boshqa maktabda o‘quvchilarga bir soat dars mashg‘uloti o‘tishi kerak edi. Avvaliga biroz cho‘chidim, chunki begona bolalar qanday qabul qiladi, ularning qiziqishi, darsga munosabatini bilmayman. Lekin sinfxonasiga kirganingizda fikr-xayolingiz faqat ta’lim bilan bo‘lsa, o‘quvchilarni darsga qiziqtira olsangiz bolalar sizni yaxshi qabul qilishiga shu yerda yana bir bor ishonch hosil qildim. Bolalar juda yaxshi qabul qildi va o‘z o‘quvchilarimga saboq bergandek, dars o‘tdim. Jarayon to‘liq videotasvirga olinib, hakamlar va pedagoglar tomonidan baholandi. Bu bosqichdan ham muvaffaqiyatli o‘tgach, bizga test topshirish uchun o‘qishimiz kerak bo‘lgan kitoblar ro‘yxati berildi. So‘zimning boshida aytgan gapni shu kitoblar orasidagi asarda qayta o‘qib, endi yakuniy bosqichda ham faol ishtirok etib, g‘olib bo‘lishga ahd qildim. Testni muvaffaqiyatli topshirdim, sinfdan tashqari ishlar bo‘yicha taqdimot qildim va hammasi ko‘ngildagidek o‘tib, g‘olib bo‘ldim, maqsadimga erishdim.

Nigora Amirova Jomboy tumanida tug‘ilib o‘sgan. Tuman markazidagi 23-maktabda ta’lim olgan va ota-onasining tavsiyasi bilan Samarqand davlat universitetining pedagogika fakultetida o‘qigan. 2001-yilda o‘zi tahsil olgan maktabga o‘qituvchi bo‘lib ishga kelgan va shundan buyon ushbu dargohda boshlang‘ich sinflarga saboq berib kelmoqda. Turmush o‘rtog‘i bilan uch nafar farzandni voyaga o‘tkazmoqda.

– 25 yillik faoliyatim davomida bir necha yillar oldin o‘tkazilgan “Ochiq darslar festivali”da qatnashganman, – deydi Nigora Amirova. – Tumanda birinchi o‘rinni egallagandim, ammo viloyat bosqichiga bormaganman. Sababi viloyatda o‘rin olish uchun tanishingiz bormi, xarajat qilishga rozimisiz, degan gaplarni eshitganimdan so‘ng, keyingi bosqichga borishni istamaganman. Shunday gap-so‘zlar, nohaqliklarni eshitib, keyinchalik umuman tanlovlarda qatnashmadim. “Yil o‘qituvchisi” tanloviga esa attestatsiyada qo‘lga kiritgan yuqori balim uchun tavsiya etilganim, qolaversa, bugun ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib, o‘qituvchining qadr-qimmati oshgani tufayli qatnashdim. Tanlov natijalari e’lon qilingach, mendan ko‘pchilik hamkasblarim “qanday qilib g‘olib bo‘ldingiz”, “tanish-bilishchilik bo‘ldimi”, “rostdan ham shuncha katta pul mukofoti berishadimi” deb so‘rashdi. Albatta, ularga tanlovning shaffof va adolatli ekanligini, hammasi o‘qituvchining bilimi, salohiyatiga bog‘liqligini, yaxshi tayyorgarlik ko‘rish kerakligini aytyapman. Pul mukofoti ham tanlov nizomida belgilab qo‘yilgan, albatta beriladi. Rostdan ham o‘z ishini yaxshi bilgan, yangi dars uslublarini o‘zlashtirgan va o‘quvchilarga mehrini bera olgan har qanday o‘qituvchi “Yil o‘qituvchisi” bo‘lishi, katta mukofot puliga sazovor bo‘lishi mumkin. Buning barchasi, avvalo, yurtimizda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar natijasi, Prezidentimizning maktabga, o‘qituvchilarga bo‘lgan juda katta e’tibori samarasi.

Lekin kechagi kunlar ham yodimizdan chiqqan emas. Shunday vaqtlar bo‘ldiki, ro‘zg‘orning kamini to‘ldirishga yetmaydigan maoshimizni ham 3-4 oylab ololmaganmiz. Oylik o‘rniga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatilgan paytlar bo‘lgandi. Shuning uchun bir necha yil oldin Prezidentimiz o‘qituvchilar 1000 dollar maosh oladigan bo‘ladi, deganlarida o‘zimiz ham ishonmaganmiz. Shukr, bugun 1000 dollardan ko‘p maosh olyapmiz. Bilimli, izlanish va intilishdan to‘xtamaydigan o‘qituvchilar uchun oylik maoshga qo‘shimcha turli xil ustamalar, mukofot pullari bor, vazir jamg‘armasi, direktor jamg‘armasidan mablag‘lar beriladi. O‘quvchingiz olimpiada va tanlovlarda g‘olib bo‘lsa ham mukofot pullari olasiz. “Yil o‘qituvchisi” tanlovi mukofoti 50 ming dollar atrofida. O‘n yil oldin buni orzu ham qilib bo‘lmasdi-ku. Nasib etsa, bu pulga Toshkent shahridan xonadon sotib olmoqchiman. Men bugun o‘qituvchi bo‘lishimni istab, shu sohaga yo‘naltirgan ota-onamdan, og‘ir vaziyatlarda ham meni qo‘llab-quvvatlab, o‘zimga ishonchimni oshirgan oila a’zolarimdan, o‘z tajribalarini o‘rgatgan ustozlarim va yonimdagi hamkasblarimdan minnatdorman!

Maktab direktori o‘rinbosari Baxtiyor To‘rayevning qayd etishicha, Nigora Amirovaning “Yil o‘qituvchisi” tanlovida g‘olib bo‘lishi muassasadagi boshqa o‘qituvchilarda ham havas uyg‘otdi va ular mazkur tanlovda qatnashish uchun hozirdan tayyorgarlikni boshlab yuborgan.

G‘olib HASANOV, Alisher ISROILOV.

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Anjuman

SPORT TA’LIMIDA YANGI YONDASHUVLAR:

bilim, malaka va yuksak salohiyat

Sport - bu nafaqat yuqori natijalar, balki chuqur bilim, kasbiy ko‘nikma, ilmiy yondashuv va uzluksiz ta’limni talab qiladigan murakkab tizim. Shu bois jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning bilim va malakasini muntazam takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu borada O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning hududiy filiallarida ko‘plab sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, institutning Samarqand filialida sport ta’limining ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlash, pedagoglar salohiyatini oshirish va tadqiqotlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Filial faoliyati innovatsion yondashuvlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va amaliyot bilan uzviy aloqadorlik asosida tashkil etilmoqda.

Filialning sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar hamda jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedralarida 31 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritadi. Ularning tarkibida ikki nafar professor, ikki nafar fan doktori, 10 nafar dotsent, 8 nafar falsafa doktori va 9 nafar katta o‘qituvchi mavjud.

Muassasada joriy yil Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridan 2949 nafar sport mutaxassisining malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Filial tomonidan oliy ta’lim muassasalari, sport maktablari, sport federatsiyalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan o‘nlab hamkorlik shartnomalari va memorandumlar imzolangan. Bunday hamkorlik doirasida ko‘chma va amaliy mashg‘ulotlar, davra suhbatlari, ilmiy-amaliy tadbirlar hamda ma’rifiy uchrashuvlarning tashkil etilishi nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlamoqda.

Ushbu sa’y-harakatlarning davomi sifatida joriy yilning 2-3-oktabr kunlari filialda “Yangi O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish: dolzarb muammolar, innovatsion yechimlar va kelajak strategiyalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Mazkur ilmiy muloqot maydonida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimidagi dolzarb masalalar, mavjud muammolarning ilmiy-amaliy yechimlari, ilg‘or tajribalar va innovatsion yondashuvlar muhokama qilinadi.

Anjumanda nafaqat oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, balki sport ta’limi tizimi mutaxassislari, murabbiylar, yosh tadqiqotchilar, doktorantlar, sport tibbiyoti va psixologiyasi mutaxassislarining ishtiroki ko‘zda tutilgan.

Muhokamalar to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha olib boriladi. Ushbu yo‘nalishlarda mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiyalar va ta’lim sifati, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik va biomexanik yondashuvlarning integratsiyasi, sport ta’limining raqamli transformatsiyasi, sun’iy intellekt, raqamli platformalar va masofaviy ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari, ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, ilmiy hamkorlik, innovatsion rivojlanish va kelajak strategiyalariga e’tibor qaratiladi.



Bugun sport sohasida yuqori natijalarga erishish nafaqat sportchining iste’dodi yoki murabbiyning tajribasiga, balki butun tizimning ilmiy-metodik ta’minotiga bog‘liq.

Shuning uchun jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish sport ta’limi sifatini oshirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, iqtidorli sportchilarni aniqlash va tayyorlash hamda mamlakat sportining raqobatbardoshligini ta’minlashni talab etadi.

Ulug‘bek MAMARASULOV,
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori.



BOLALIKNING ILK USTOZLARI

Telefonimga qo‘ng‘iroq bo‘ldi. O‘g‘limning tarbiyachisi telefon raqami. Go‘shakni ko‘tardim. Farzandimning “Ayajon sizni yaxshi ko‘raman, siz dunyodagi eng yaxshi ayasiz”, degan ovozi yangradi. Bu so‘zni farzandim aytdi. Ammo undagi samimiyat, mehr, minnatdorlik tuyg‘ularining shakllanishida bog‘cha tarbiyachisining ham mehnati bor edi.

Darhaqiqat, erta tongda bolalarga nimadir o‘rgatay, bilim beray deydigan faqat o‘qituvchilar emas. Bog‘cha tarbiyachilari hamdir. Ertalab bu mo‘jaz maskan oldida bolajonlarni kulib qarshi oladigan, kun bo‘yi injiqliklariga ham kulib javob beradigan bog‘cha opalardir.

Farzandingizni bog‘chaga olib borar ekansiz, birin-ketin kirib kelayotgan bolajonlarni mehrli nigohi va iliq tabassumi bilan tarbiyachilar kutib oladi. Kimdir onasining qo‘lini mahkam ushlab olgan, kimdir quvonch bilan yugurib kirgan. Yana kimdir uyqusi kelib, injiqlik qilgan. Tarbiyachi ularning har birini bag‘riga bosib, «Kel, bolajonim!» degan samimiy so‘z bilan kutib oladi. Ularning ish kuni shunday boshlanadi.

Bir qarashda oddiy. Ammo bolajonlarning qalbiga yo‘l topishdek murakkab ishni aynan soha xodimlari bajaradi. Tarbiyachi bolaga faqat she’r yodlatadi, rasm chizdiradi, qo‘shiq ayttiradi, deb o‘ylasangiz adashasiz. Ular bolalarning qalbida ilk insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Do‘sti bilan o‘yinchog‘ini bo‘lishishni, kattalarni hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilishni, «rahmat», «iltimos», «kechirasiz» kabi so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatishni bog‘cha opalar o‘rgatadi.

Shuning uchun bolalar bog‘chadan olgan mehr va odobni, tarbiyachilarning samimiy so‘zlarini yodidan chiqarmaydi. Tarbiyachi — shunchaki kasb egasi emas, u bolalar hayotining eng beg‘ubor fasliga hamroh bo‘ladigan insondir.

Nasiba JONTO‘RAYEVA.

Tadbirkor nohalol raqobat tufayli zarar ko‘radi

Bugun mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va aholining farovon hayoti ko‘p jihatdan ochiq va shaffof iqtisodiyotga bog‘liq. Afsuski, ayrim hollarda qonuniy faoliyatdan chetda qolayotgan, soliq to‘lamaslik va rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan daromad olish bilan bog‘liq holatlar uchramoqda. Bunday jarayonlar yashirin iqtisodiyot deb ataladi va u jamiyat rivojiga jiddiy to‘siq bo‘ladi. Faoliyat yuritayotgan subyektlarning soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lamasligi oqibatida davlat budjetiga zarar yetadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma kabi muhim sohalarni rivojlantirish uchun yetarli mablag‘ to‘planmaydi. Halol mehnat qilayotgan tadbirkorlar nohalol raqobat tufayli zarar ko‘radi. Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi korrupsiya, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik muammolarini ham keltirib chiqaradi. Rasmiy ish joyiga ega bo‘lmagan fuqarolar ijtimoiy himoyadan mahrum bo‘ladi. Shu bois yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faqat davlat idoralarining vazifasi emas, balki har bir fuqaroning burchidir.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo‘yicha Oqdaryo tumani adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida 73 marotaba tadbirlar o‘tkazilib, 21 nafar tadbirkor bilan davra suhbati o‘tkazildi. 39 ta tadbirkorlik subyektlarida sayyor xizmatlar ko‘rsatildi. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi bilan hamkorlikda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

Bunyodjon AHMEDOV,
Oqdaryo tumani Davlat xizmatlari markazi bo‘lim boshlig‘i.

OZODLIK – TENGI YO‘Q NE’MAT



O‘ylab qaraganingda, insonga ozodlikdan ortiq baxt yo‘q. Aksincha bo‘lganda-chi? Misol uchun, jinoiy qilmishi uchun shaxsga sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo‘lsa, tabiiyki, u tutqunlikda yashashga majbur. Yoki probatsiya nazoratida jazo o‘tayotganlar ham ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan bo‘lsa-da, tegishli organlarga hisob berib borishlariga to‘g‘ri keladi.

Ammo hayotda ana shu tengi yo‘q ne’mat - ozodlikning qadriga yetmay, o‘zining shirin hayotini bemaqsad o‘tkazayotganlar ham yo‘q emas. Fikrimizga Nasim Ramazonovni (ism-familiyalar shartli) misol tariqasida keltirish mumkin.

N.Ramazonov oilali, ikki nafar farzandning otasi. U muqaddam jinoyat ishlari bo‘yicha Urgut tuman sudining 2025-yil 24-sentabrdagi hukmiga ko‘ra, 4 yil 9 oy ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan. Tayinlangan jazoning 4 yil 5 oyi o‘talmagan.

Sud tomonidan tayinlangan jazodan saboq chiqarmasa, «ko‘r ko‘z ochilmasa,» qiyin ekan. Gap shundaki, u shu yilning 19-mart kuni Samarqand shahri bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi xodimlari tomonidan o‘tkazilgan giyohvandlik moddalarini nazorat ostida sotib olish va o‘tkazish tezkor tadbiriga xaridor sifatida jalb qilingan shaxsga 0,22 gramm giyohvandlik moddasini 900 ming so‘mga sotgan vaqtida ushlanadi.

Bundan tashqari, narkologiya ekspertiza xulosasida N.Ramazonovda opiyli giyohvandlik (geroin) belgilari mavjudligi, u majburiy davolash choralariga muhtoj ekanligi qayd etilgan.

Sudlov hay’ati sudlanuvchini jamiyatdan ajratilmagan holda qayta tarbiyalash imkoniyati mavjud emas, deb e’tirof etdi hamda unga o‘n yil olti oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Shu bilan birga, u jazoni o‘tash joylarida giyohvandlik xastaligidan majburiy davolatiladigan bo‘ldi.

Jamshid IBRAGIMOV,
jinoyat ishlari bo‘yicha Samarqand shahar sudi sudyasi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DUMALOQ MUHR VA BURCHAK TAMG‘ALARI BEKOR QILINMOQDA!

Samarqand tumanlararo iqtisodiy sudining hal qiluv qarorlari asosida viloyatimizning turli joylarida joylashgan “IBROHIM NUR PHARM” MCHJ (STIR 311184106), “GLOBAL TOMORQA XIZMATLARI” MCHJ (STIR 309245320), “TURON FARM MEDIGEL” MCHJ (STIR 310660930), “GOLD EXPORT TOMORQA 777” MCHJ (STIR 311178262), “SEVENCH FARM” MCHJ (STIR 310786955), “URG ISMOIL FARM” MCHJ (STIR 309288347), “BONG” MCHJ (STIR 203128339), “SAM OZODA PARIZODA FARM” MCHJ (STIR 310988688), “FUTURICON” MCHJ (STIR 306573414), “PARIZODA ASALXON” MCHJ (STIR 309635524), “PAYARIQ ME’MOR” MCHJ (STIR 308649926), “RAYHON PARFUME” MCHJ (STIR 310816584)lar tugatish davrida qonun talablariga ko‘ra jamiyatlar dumaloq muhr va burchak tamg‘asini tugatish boshqaruvchisiga topshirmaganligi uchun bekor qilinadi. Bu muhr va burchak tamg‘alaridan kelgusida foydalanish qat’iyan taqiqlanadi.

DA’VOLAR BO‘LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Radjabov Mamedga (2000-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Axrorov Abrorga (2022-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashirova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Yalgashev Pulatga (2006-yil 15-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashirova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Sadullayev Xamid Maxmudovichga (2025-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Shurayev Xurshid Kurdashevichga (2026-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Maxmudov Ibodulla Mamasoliyevichga (2017-yil 22-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Shononov Toshmatga (2024-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarda marhum Kurbanova Irgash Raxmanovnaga (2021-yil 2-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Qarshiyev Obidxujaga (2026-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.

Insonning har bir yutug‘i ortida ustoz mehnatining bir zarrasi bor

Zarafshon

KODDAN TASHQARI:

MUHANDISLIK TAFAKKURI SARI

Axborot texnologiyalari sohasida kecha eng muhim bo‘lgan ko‘nikma bugun o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Yangi dasturlash tillari, platformalar va sun’iy intellekt vositalari paydo bo‘layotgan bir sharoitda mutaxassisdan texnologiyani bilishning o‘zi emas, balki o‘zgarishlarga moslasha olish, muammoni anglash va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati talab etilmoqda.



Asli urgutlik, ayni paytda AQShda ish olib borayotgan Abduaziz Abduxalimovning faoliyati ham ana shu jarayonning o‘ziga xos namunasi. U mehnat faoliyatini 2015-yilda Junior Java Developer sifatida boshlagan. Keyinchalik SoftClub va Barso LLC kompaniyalarida ishlab, katta tajribaga ega dasturchi darajasiga ko‘tarildi. Bugun esa amaliy dasturlash bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar olib bormoqda va xalqaro IT tadbirlarida ekspert sifatida ishtirok etmoqda. Uning fikricha, dasturchi va muhandis o‘rtasidagi asosiy farq faqat yozilgan kod hajmida emas.

— Faoliyatimni boshlagan paytimda asosiy vazifam berilgan topshiriqni bajarish edi. Vaqt o‘tishi bilan esa har bir qarorning sababini o‘ylay boshladim. Muammo nimadan kelib chiqdi? Tanlangan yechim qanchalik samarali? Uni keyinchalik boshqa mutaxassislar rivojlantira oladimi? Ana shu savollar muhandislik tafakkurini shakllantiradi, — deydi Abduaziz Abduxalimov.

Bugun masofaviy ishlash imkoniyatlari dunyo mamlakatlaridagi mutaxassislarni bir mehnat maydoniga yaqinlashtirdi. O‘zbekistonlik dasturchilar ham xorijiy kompaniyalar va xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun keng imkoniyatlarga ega. Biroq bu jarayon raqobatni ham kuchaytirgan. Endi mutaxassis faqat mahalliy bozordagi hamkasblari bilan emas, turli davlatlardagi dasturchilar bilan bir maydonda ishlaydi.

Abduaziz Abduxalimovning ta’kidlashicha, bunday sharoitda texnik bilim bilan birga ingliz tili, muloqot madaniyati va o‘z fikrini aniq ifoda etish qobiliyati ham muhim.

Abduazizning professional tajribasida yana bir muhim yo‘nalish — loyihalarni baholash. U 2026-yil 27–28-fevral kunlari o‘tkazilgan AITEX Summit Winter onlayn xakatonida rasmiy hakam sifatida ishtirok etdi. Loyihalarni baholash jarayonida ma’lumotlar sifati va metodologiyasi, texnik amalga oshirish, amaliy ta’sir, vizualizatsiya va kommunikatsiya, taqdimot hamda hujjatlashtirish kabi mezonlarga e’tibor qaratildi.

— Ko‘pchilik murakkab texnologiyalar ishlatilgan loyihani kuchli deb o‘ylaydi, – deydi u. – Aslida esa murakkablikning o‘zi sifat belgisi emas. Agar oddiy yechim muammoni samarali hal qilsa, unga ortiqcha texnologiya qo‘shish shart emas. Muhimi, muallif o‘z qarori sababini tushuntira olishi va yaratgan tizimini boshqalar ham anglay olishidir. Bu yondashuvda hujjatlashtirishga ham alohida ahamiyat beriladi. Chunki har qanday professional loyiha bir kishi uchun emas, jamoa bilan uzoq muddat ishlash uchun yaratiladi.

Sun’iy intellektning keng ommalashayotgani IT sohasidagi eng ko‘p muhokama qilinayotgan masalalardan biri. Bugun turli AI vositalari kod yozish, uni tahlil qilish va xatolarni aniqlashda dasturchiga yordam bermoqda. Abduaziz Abduxalimov bu jarayonni dasturchining vazifalari o‘zgarishi bilan bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, sun’iy intellekt tayyor kod taklif qilishi mumkin, ammo uning qanchalik to‘g‘ri ekanini inson anglashi kerak. Bu esa algoritmlar, ma’lumotlar bazasi, xavfsizlik, tarmoq texnologiyalari va dasturiy ta’minot asoslarini bilishni talab etadi.

— Kod ishlayotgani uning to‘g‘ri ekanini bildirmaydi. Unda xavfsizlik muammosi yoki katta yuklamada yuzaga chiqadigan xatolar bo‘lishi mumkin. Shuning uchun AI davrida fundamental bilimlarning ahamiyati kamaymaydi, — deydi mutaxassis. – Kelajakda dasturchining qiymati qancha kodni qo‘lda yozishi bilan emas, muammoni to‘g‘ri qo‘ya olishi, sun’iy intellekt taklif qilgan natijani tekshirishi va eng maqbul muhandislik qarorini tanlay bilishi bilan belgilanadi.

Abduazizning keyingi faoliyatida nafaqat murakkab texnologik loyihalar yaratish, balki to‘plangan tajribani tizimlashtirish va boshqa mutaxassislar bilan bo‘lishish ham muhim o‘rin tutadi. Bugun IT sohasi jadal o‘zgarayotgan bo‘lsa-da, mutaxassis uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan qadriyatlar bor. Bu — bilimga qiziqish, mas’uliyat, mustaqil fikrlash, qarorni asoslay olish va doimiy izlanish.

Abduaziz Abduxalimovning kasbiy yo‘li ham shu haqiqatni ko‘rsatadi: zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish muhim, ammo haqiqiy professionallik ulardan foydalanishdan tashqari, muammoni to‘g‘ri anglash va insonlarga foyda keltiradigan yechim yaratishdan boshlanadi.

Nozimbek MARDONOV.



Ustoz... Bu so‘zning zamirida qanchadan-qancha mehr, sabr, zahmat va fidoyilik mujassam. Inson umri davomida ko‘plab odamlarni uchratadi. Ammo shunday insonlar bo‘ladiki, oradan qancha yillar o‘tmasin, ularning ovozi, nasihati, mehribon nigohlari qalbimizda yashayveradi. Ular — ustozlarimiz.

Har yili O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida beixtiyor bolalik va yoshlik yillarimga qaytaman. Maktab ostonasi, birinchi qo‘ng‘iroq, qo‘limizdagi yangi kitoblar, oppoq daftarlar... Va, albatta, bizni ilm olamiga yetaklagan aziz ustozlar siymosi ko‘z oldimda gavdalanadi.

Men uchun ustoz deganda, avvalo, birinchi o‘qituvchim Dilbar Hayitovna yodimga tushadi. Birinchi ustozni unutib bo‘ladimi?! Qo‘limizdan tutib birinchi harfni yozishni o‘rgatgan, kitob sahifalaridan butunlay yangi bir olamni ochib bergan, bolalik qalbimizga ilmga muhabbat urug‘ini qadagan inson — birinchi ustozdir. Dilbar Hayitovnaning sabr-toqati, mehribonligi, har bir bolaga alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi yillar o‘tsa-da xotiramdan o‘chgan emas.

O‘sha paytlarda biz ustozning birgina harfni chiroyli yozishimiz uchun qancha mehnat qilayotganini, har bir yutug‘imizdan qanchalik quvonayotganini, ehtimol, to‘liq anglamaganmiz. Bugun esa hayot tajribasi ortgan sari birinchi ustozning inson taqdiridagi o‘rni naqadar buyuk ekanini teran his qilaman.

Maktab yillarim haqida so‘z ketganda sinf rahbarim Sonya Nasharovnani ham alohida mehr va minnatdorlik bilan eslayman. Sonya Nasharovna bizga bilim bilan bir qatorda odamiylikni, intizomni, mas’uliyatni, bir-birimizni hurmat qilishni o‘rgatgan ustozlarimdan. U kishining mehribonlik bilan aytgan nasihatlari, ba’zan talabchanlik bilan bildirgan tanbehlari ham aslida bizning kelajagimiz uchun ekanini yillar o‘tib yanada yaxshi angladim.

Hayotimning keyingi muhim bosqichi — talabalik yillarida esa menga universitetda saboq bergan ustozim Ziyodullo Muqimovning o‘rni alohida.

Oliy ta’limda ustoz talabaga faqat fan sirlarini o‘rgatmaydi. Uni mustaqil fikrlashga, izlanishga, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lishga, kelajakda tanlagan kasbiga munosib inson bo‘lishga tayyorlaydi.

Ziyodullo Muqimovdan olgan saboqlarim men uchun auditoriyada qolib ketgan oddiy darslar emas. Ustozning talabchanligi, ilmga munosabati, mustaqil fikrlashga undashi hayot yo‘limda asqatgan muhim saboqlarga aylandi.

Bugun ortga nazar tashlab, bir haqiqatni chuqur his qilaman: insonning har bir yutug‘i ortida ustoz mehnatining bir zarrasi bor.

Biz qaysi kasbni tanlamaylik, qanday lavozimda ishlamaylik, jamiyatda qanday mavqega ega bo‘lmaylik — bir vaqtlar partada o‘tirib, ustozning so‘zlarini tinglagan shogirdmiz. Hayot insonni turli sinovlardan o‘tkazadi. Yillar o‘tib, o‘zimiz ham katta bo‘lamiz, farzandlar ulg‘aytirib, jamiyat oldida mas’uliyatni his qilamiz. Ana shunda bolaligimizda ustoz aytgan oddiy bir nasihatning naqadar katta ma’no kasb etganini anglab yetamiz.

Kelajakni maktabdan, taraqqiyotni esa o‘qituvchidan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Farzandlarimizga qanday ta’lim va tarbiya bersak, ertangi jamiyatimiz ham shunday bo‘ladi. Shu ma’noda ustoz mehnati nafaqat bir insonning, balki butun bir avlodning taqdiriga daxldor buyuk mas’uliyatdir.

Inobat BOBOQULOVA,
Samarqand shahar 1-son FHDY bo‘limi mudirasi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Mulohaza uchun mavzu



Sport boy bo‘lish vositasi emas

- Dada, men futbolga qiziqmayman, mashg‘ulotga borgim kelmayapti. Kelajakda o‘qituvchi bo‘lishni xohlayman.

- O‘qituvchi? Yo‘q, sen sportchi bo‘lishing kerak. Mana, Abduqodir Husanovni qara. Dunyodagi eng mashhur futbol klublaridan birida o‘ynaydi. Uning bir yillik maoshini men o‘n yil ishlasam ham topolmayman, o‘g‘lim...

Tanishimning o‘g‘li bilan bo‘lgan suhbatini eshitib, ota farzandining kelajagini, avvalo, qancha daromad topishi bilan bog‘layotganiga guvoh bo‘ldim. Afsuski, bugun ba’zi ota-onalar farzandining kelajakdagi kasbini uning qiziqishi va qobiliyatiga qarab emas, ko‘proq qancha daromad topishiga qarab belgilashga harakat qilmoqda. Go‘yo hayotdagi eng katta maqsad – sportchi bo‘lib, tezda mashhurlikka erishish, katta daromad topish va boy-badavlat hayot kechirishdek.

To‘g‘ri, sportchilarimizning muvaffaqiyatidan faxrlanamiz, havas qilamiz. Ularning mehnati, iqtidori va matonati yosh avlodga namuna bo‘la oladi. Ammo har bir yoshning o‘z qiziqishi, qobiliyati va orzusi bor. Kimdir futbolchi bo‘lishni, kimdir shifokor, tadbirkor yoki o‘qituvchi bo‘lishni orzu qiladi. Bir sportchining yutug‘i sizning ham farzandingiz sportchi bo‘lishi kerak, degani emas. Aslida sportga boy bo‘lish yoki mashhurlikka erishishning kafolatlangan vositasi sifatida qarash noto‘g‘ri. Sport, avvalo, mehnat, intizom, iroda, sog‘lom turmush tarzi va o‘z ustida doimiy ishlashni o‘rgatadigan soha. Professional sportda yuksak natijaga erishish uchun nafaqat iste’dod, balki qiziqish, yillar davomidagi mashaqqatli mehnat va fidoyilik talab etiladi.

SPORTMI YOKI SHOV-SHUV?

So‘nggi vaqtlarda pul uchun turli joylarda jang qiladigan, ijtimoiy tarmoqlarda xurmacha qiliqlari va janjallari bilan shov-shuv ko‘taradiganlar ko‘paymoqda. Achinarlisi, ularning ayrimlari o‘zini sportchi deb ataydi. Xo‘sh, nega bunday holatlarga o‘z vaqtida chora ko‘rilmayapti? Nima uchun sport va sportchi nomi ostidagi bunday xunuk ko‘rinishlar ommalashmoqda? Faxriy sportchi, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi, professor Hamroqul Rofiyev bu holatni, avvalo, jismoniy madaniyat yetishmasligi bilan ifodaladi.

– Sport bilan shug‘ullanish jismoniy madaniyat shakllanganini anglatmaydi, – deydi H.Rofiyev. – Jismoniy madaniyat insonning nafaqat baquvvat va sog‘lom bo‘lishi, balki intizomli, o‘zini boshqara oladigan, raqibini hurmat qiladigan va sportning axloqiy qadriyatlariga amal qiladigan shaxs sifatida tarbiyalanishidir. Shu ma’noda pul, shuhrat yoki shov-shuvni sportning asosiy maqsadiga aylantirish jismoniy madaniyatning mohiyatiga ziddir. Ijtimoiy tarmoqlarda janjal, haqorat va mushtlashuvlar ko‘proq ko‘rilgani sari, bunday «shou»lardan daromad orttirishga intilish ham kuchaymoqda. Natijada yillab mehnat, intizom va mahorat talab qiladigan haqiqiy sport o‘rnini tez tanilishga intilish egallamoqda. Shu bois sport tashkilotlari va huquqni muhofaza qilish organlari bunday holatlarga befarq bo‘lmasligi, o‘zini sportchi sifatida ko‘rsatayotgan shaxslarning jamoatchilik oldidagi mas’uliyatini oshirishi zarur. Chunki haqiqiy sportchi nafaqat kuchli, balki odobli, intizomli va raqibiga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan inson bo‘lishi kerak.

SPORTGA MUHABBATMI YOKI MANFAAT?

Sportchilarimiz jahon arenalari va xalqaro musobaqalarda yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, O‘zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda. Erishilayotgan bu natijalar tufayli sport bilan shug‘ullanayotgan yoshlar ko‘paymoqda. Biroq, ayrim ota-onalar farzandini sport to‘garagiga olib borishda avvalo: «Qaysi sport turida ko‘proq pul bor?», «Qachon chempion bo‘ladi?», «Qachon katta daromad topadi?» degan savollarga javob izlaydi. Albatta, farzandining kelajagi va moddiy farovonligi haqida o‘ylash tabiiy. Biroq sportni faqat pul va shuhrat vositasi sifatida ko‘rish bolaning munosabatini salbiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Bunday holatda bola mashg‘ulotdan zavq olish, sog‘lom bo‘lish yoki o‘z ustida ishlash uchun emas, balki tezroq natija va moddiy manfaatga erishish uchun harakat qila boshlaydi. Vaholanki, har bir sportchi professional chempion bo‘lavermaydi. Masalan, futbol bilan shug‘ullanayotgan minglab bolalar orasidan sanoqlilargina yuqori darajadagi professional futbolchiga aylanadi. Boks to‘garagiga qatnayotganlarning ham barchasi chempion bo‘lib ketmaydi. Bu professional sport qanchalik katta mehnat, iste’dod, sabr va raqobat talab qilishini ko‘rsatadi.

– Farzandim sport bilan shug‘ullansa, sog‘lom va kuchli bo‘ladi, yurtimiz sha’nini munosib himoya qiladi, degan niyatda bolasini sportga beradigan ota-onalar ko‘p, – deydi futbol murabbiyi Jamshid Jo‘raqulov. –Ko‘pchilik farzandining olimpiya sport turlari bilan shug‘ullanishini xohlaydi. Ammo har bir ota-ona ham bu yo‘lda farzandini doim qo‘llab-quvvatlayvermaydi. Sportdagi mehnat, jarohatlar, mag‘lubiyatlar, kunlik mashg‘ulotlar va kuchli raqobat sportchini chiniqtiradi. Qo‘shimcha parvarish, vitaminlar, xalqaro musobaqalarga borib-kelish va sportchi bilan individual ishlash esa qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun sportda natijaga erishish uchun nafaqat bolaning intilishi, balki ota-onaning ham doimiy qo‘llab-quvvatlashi muhim.

Sport orqali katta daromad topayotganlar bor, albatta. Ammo bunday natijaning ortida katta mehnat, sabr, mashaqqat turadi. Bolasini qo‘llab-quvvatlagan, uning sportdagi intilishini to‘g‘ri tushungan ota-onalar farzandining maqsadiga erishishiga katta hissa qo‘shadi. Biroq farzandining bo‘sh vaqti bekor o‘tmasin, degan maqsadda uni sportga beradigan ota-ona undan chempionlikni kutishi noto‘g‘ri. Sog‘lom, irodali, intizomli va maqsadli inson bo‘lish imkoniyati har birimizda bor. Sportning eng katta foydasi shunda aslida.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

OKTABR OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-OKTABR

Jo‘raqul SATTOROV – 1938-yilda Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

4-OKTABR

Obloqul UZOQOV – (1922-1955) Urgut tumanida tug‘ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

Nafas ESHQOBILOV – 1953-yilda Past Darg‘om tumanida tug‘ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Jo‘raboy HAMDAMOV – (1929-2020) Andijon viloyati Asaka tumanida tug‘ilgan. SamDU professori, tilshunos olim.

Obloqul BOZOROV – (1932-2021) Bulung‘ur tumanida tug‘ilgan. Falsafa fanlari doktori, professor.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 295 nusxada chop etildi. Buyurtma 379. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Gazetamizning ayrim materiallariga surat tanlashda sun’iy intellekt imkoniyatidan foydalaniladi

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: G.MO‘MINOVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda